

URUSH VA URUSHDAN KEYINGI YILLARDA ANDIJON VA FARG‘ONA VILOYATLARI SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI**РОЛЬ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ АНДИЖАНСКОЙ И ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ В ВОЕННЫЕ И ПОСЛЕВОЕННЫЕ ГОДЫ****THE ROLE OF WOMEN IN THE HEALTHCARE SYSTEM OF ANDIJAN AND FERGANA REGIONS DURING THE WAR AND POST-WAR YEARS**

Madaminov Ulug‘bek Muhammadjon o‘g‘li

University of Business and Science

Ijtimoiy gumanitar kafedrasi stajyor o‘qituvchisi.

ollayor1220@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada 1941-1950-yillarda Farg‘ona va Andijon viloyatlarida sog‘liqni saqlash sohasida xotin-qizlarning tutgan o‘rni arxiv manbalari asosida tahlil qilingan. Urush oqibatida yuzaga kelgan kadrlar taqchilligi davrida o‘zbek ayollarining hamshiralik kurslarida o‘qishi, evakogospitallar va qishloq tibbiyot punktlaridagi fidoiy mehnati, shuningdek, sohada gender mutanosibligining o‘zgarishi tarixiy dalillar bilan yoritilgan.*

Аннотация: *В статье на основе архивных источников анализируется роль женщин в сфере здравоохранения Ферганской и Андижанской областей в 1941-1950 годах. Историческими фактами освещаются обучение узбекских женщин на курсах медсестер, их самоотверженный труд в эвакогоспиталях и сельских медпунктах в период кадрового дефицита, а также изменение гендерного баланса в отрасли.*

Abstract: *The article analyzes the role of women in the healthcare sector of Fergana and Andijan regions in 1941-1950 based on archival sources. It highlights with historical evidence the training of Uzbek women in nursing courses, their selfless work in evacuation hospitals and rural clinics during the personnel shortage, and the changing gender balance.*

Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar, urush, tibbiyot, Andijon, Farg‘ona, hamshiralalar, shifokorlar, gospital, arxiv, kadrlar, taqchillik, mehnat, front, sog‘liqni-saqlash, fidoiylik.*

Ключевые слова: *женщины, война, медицина, Андижан, Фергана, медсестры, врачи, госпиталь, архив, кадры, дефицит, труд, фронт, здравоохранение, самоотверженность.*

Keywords: *women, war, medicine, Andijan, Fergana, nurses, doctors, hospital, archive, personnel, deficit, labor, front, healthcare, selflessness.*

Kirish

Ikkinchi jahon urushi yillari (1941-1945) va undan keyingi tiklanish davri insoniyat tarixida nafaqat misli ko‘rilmagan iqtisodiy-ijtimoiy yo‘qotishlar, balki jamiyatning turli sohalarida gender rollarining tubdan o‘zgarishi bilan ham xarakterlanadi. Urush boshlanishi bilan sobiq Ittifoq miqyosida yuz minglab malakali erkak mutaxassislar, xususan, shifokorlar va tibbiyot xodimlari frontga safarbar etildi. Bu jarayon O‘zbekistonda, jumladan, aholi eng zich joylashgan Farg‘ona vodiysida, xususan, Farg‘ona va Andijon viloyatlarida sog‘liqni saqlash tizimini jiddiy inqiroz yoqasiga keltirib qo‘ydi [1, 56-b.]. Aynan shu og‘ir tarixiy sharoitda tibbiyot sohasini saqlab qolish va uning barqaror ishlashini ta‘minlashdek mas‘uliyatli yuk xotin-qizlar zimmasiga tushdi.

1940-yillarning boshlarigacha Andijon va Farg‘ona viloyatlari tibbiyot muassasalarida, ayniqsa, rahbarlik lavozimlarida va oliy toifali jarrohlik, travmatologiya kabi yo‘nalishlarda asosan erkak shifokorlar faoliyat ko‘rsatgan. Mahalliy xotin-qizlar o‘rtasida tibbiy ta‘lim darajasi past bo‘lib, ular asosan kichik tibbiy xodimlar yoki sanitarkalar vazifasini bajarib kelishgan. Biroq, front ehtiyojlari va Farg‘ona vodiysiga ko‘chirilgan o‘nlab evakogospitallarning (harbiy shifoxonalarning) tashkil etilishi hududda kadrlar tanqisligini favqulodda oshirib yubordi. Frontdan keltirilgan og‘ir yaradorlarni parvarishlash, hududda tarqalishi xavfi yuqori bo‘lgan turli yuqumli kasalliklarning (terlama, bezgak) oldini olish hamda qishloq aholisiga kundalik tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun zudlik bilan minglab yangi kadrlar kerak edi.

Davlat va mahalliy hukumat organlari bu muammoni hal qilishning yagona yo‘li sifatida xotin-qizlarni, jumladan, mahalliy o‘zbek qizlarini qisqa muddatli tibbiyot kurslariga jalb etishni boshladi. Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy jamiyatlari orqali Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida hamshiralar tayyorlovchi tezkor kurslar ochildi. Natijada minglab yosh xotin-qizlar mehnat fronti bilan bir qatorda tibbiyot muassasalariga kirib keldilar [2, 114-b.]. Ular tunu kun ospitallarda ishlash, jarrohlik amaliyotlarida assistentlik qilish, dorilar taqchil bo‘lgan sharoitda xalq tabobati usullari bilan yaradorlarni davolashga yordam berish kabi ulkan ishlarni bajardilar.

Urushdan keyingi yillarda (1946-1950) hududda qoldirilgan tibbiyot infratuzilmasi faoliyatini davom ettirishda ham ayollarning o‘rni beqiyos bo‘ldi. Vaqtinchalik chora sifatida tibbiyotga kirib kelgan ko‘plab xotin-qizlar keyinchalik o‘z ta‘limini davom ettirib, yetuk mutaxassislarga, sog‘liqni saqlash tashkilotchilariga aylanib yetishdilar. Mazkur maqolaning maqsadi urush va undan keyingi dastlabki yillarda Farg‘ona hamda Andijon viloyatlarida xotin-qizlarning sog‘liqni saqlash tizimiga kirib kelishi, ularning kasbiy shakllanishi hamda tibbiyotda yuz bergan "feminizatsiya" (sohaning xotin-qizlashuvi) jarayonlarini tarixiy, arxiv va statistik manbalar asosida keng va xolis yoritib berishdan iboratdir. Ushbu tadqiqot jamiyat

tarixida xotin-qizlarning fidokorona xizmatlarini baholashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Urush yillari va undan keyingi davrda O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi faoliyati, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va mehnat jarayonlaridagi ishtiroki turli davr tarixshunosligida o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Sovet davri adabiyotlarida bu mavzu asosan "xalqlar do‘stligi", "sovet ayolining qahramonligi" va Kommunistik partiya rahbarligi ostidagi umumxalq harakati qolipi doirasida o‘rganilgan. Masalan, U.A. Muqimov va boshqa mualliflarning tibbiyot tarixiga oid asarlarida o‘zbek ayollarining evakogospitallardagi ishtiroki raqamlar orqali ko‘rsatib berilgan bo‘lsa-da, ularning og‘ir mehnat sharoitlari, moddiy nochorligi va shaxsiy fojialari mafkuraviy sabablarga ko‘ra chetda qoldirilgan [3, 89-b.]. S.Sh. Shamansurovaning asarlarida esa xotin-qizlarning front orqasidagi mehnati, Qizil Xoch jamiyati safidagi faoliyati keng e‘tirof etiladi, biroq Farg‘ona va Andijon viloyatlarining lokal xususiyatlariga kam e‘tibor qaratilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tkazilgan tarixiy tadqiqotlarda ayollar masalasi hamda tibbiyot tarixi mutlaqo yangi, xolis yondashuvlar asosida o‘rganila boshlandi. Tarixchi olim D. Alimova xotin-qizlar tarixiga bag‘ishlangan monografiyasida sovet tizimining xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilish siyosatini ikki tomonlama (ham imkoniyat, ham ortiqcha ekspluatatsiya) baholab, tibbiyot sohasiga jalb etilgan ayollarning qishloq joylardagi turmush tarziga alohida urg‘u beradi [4, 117-b.]. R. Shamsutdinovning urush davriga bag‘ishlangan fundamental izlanishlarida Farg‘ona vodiysiga keltirilgan evakogospitallar va ularda ishlagan tibbiyot xodimlarining tarkibi haqida qimmatli arxiv dalillari keltirilgan [5, 43-b.]. Olim asarlarida o‘nlab mahalliy andijonlik va farg‘onalik hamshiralarning ismlari tilga olinib, ularning urushdan keyingi tibbiyotni tiklashdagi o‘rni qayd etilgan.

Shuningdek, soha mutaxassisleri N. Maxmudova va A. Xudoybergenovlarning tadqiqotlarida O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida onalik va bolalikni muhofaza qilish, feldsher-akusherlik punktlarini rivojlantirishda ayollar kadrlarining yetakchi kuchga aylanishi masalalari ko‘tarilgan [6, 155-b.]. A.S. Ataxanov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida Andijon viloyatida o‘rta va oliy tibbiy ta‘lim tarmog‘ining shakllanishini o‘rganar ekan, 1940-yillarda hamshiralalar tayyorlash qisqa muddatli kurslarining Andijon tibbiyot maktabi (uchilishchasi) bazasida qanday tashkil etilgani hamda u yerdagi o‘quvchilarning mutlaq ko‘pchiligi qizlardan iborat bo‘lganini dalillar bilan asoslab beradi [7, 28-b.].

Xorijiy tarixchilar, xususan, sovet ayollari tarixini o‘rganuvchi g‘arb olimlari (masalan, M. Kamp) Markaziy Osiyoda ayollarning ta‘lim va tibbiyot kabi ijtimoiy sohalarga ommaviy jalb

etilishini davlatning pragmatik ehtiyoji bilan izohlab, bu jarayon ayollarning jamiyatdagi mavqeini qisman mustaqil qilganini e’tirof etadilar [8, 142-b.]. Ammo mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, garchand turli tadqiqotlarda ayollar va tibbiyot tarixi alohida o’rganilgan bo’lsa ham, aynan 1940-1950 yillar oralig’ida Andijon va Farg’ona viloyatlari misolida tibbiyot tizimidagi xotin-qizlarning o’rni va tibbiy inqirozni yengib o’tishdagi fidoiyligi yagona muammoviy yo’nalish sifatida kompleks ravishda maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu maqola mintaqaviy arxiv hujjatlari asosida mazkur ilmiy bo’shliqni to’ldirishga xizmat qiladi.

Metodologiya

Tadqiqot ishini amalga oshirishda tarix fanining fundamental tamoyillari bo’lmish tarixiylik, xolislik, tizimlilik va ilmiylik prinsiplariga tayanildi. 1941–1950-yillar davomida Farg’ona va Andijon viloyatlari sog’liqni saqlash tizimidagi xotin-qizlarning faoliyatini to’laqonli yoritish uchun muammoviy-xronologik, qiyosiy-tahliliy, retrospektiv hamda statistik metodlar qo’llanildi [9, 64-b.]. Muammoviy-xronologik metod orqali urush yillaridagi favqulodda chora-tadbirlar hamda urushdan keyingi tinchlik yillaridagi tibbiyot kadrlarini shakllantirish bosqichlari bir-biriga uzviy bog’liqlikda o’rganildi.

Maqolaning asosiy manbaviy bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA), Farg’ona viloyati davlat arxivi (FVDA) hamda Andijon viloyati davlat arxivi (AVDA) fondlarida saqlanayotgan asl hujjatlar tashkil etdi. Xususan, O‘zR MDAning "O‘zbekiston SSR Sog’liqni saqlash xalq komissarligi"ga oid 837-fondidan evakogospitallarning kadrlar shtati, qisqa muddatli hamshiralar kurslarining ochilishi bo’yicha hukumat qarorlari hamda O‘zbekiston Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy jamiyati markaziy qo‘mitasining yillik hisobotlari olinib, miqdoriy jihatdan tahlil qilindi [10, 18-b.].

Lokal jarayonlarni yoritishda Farg’ona (412-fond) va Andijon (135-fond - Sog’liqni saqlash bo’limi hujjatlari) viloyatlari arxivlaridan olingan hujjatlarga tayalanildi [11, 22-b.]. Ushbu fondlardagi shifoxonalar bosh shifokorlarining viloyat rahbariyatiga yozgan ma’lumotnomalari, tibbiyot xodimlarining gender tarkibiga oid shtat jadvallari (formalar), tibbiyot uchilishchalariga qabul ko’rsatkichlari solishtirma jadvallar yaratish orqali qiyoslandi. Arxiv hujjatlarini o’rganish davomida rasmiy byurokratik til ortidagi real vaziyatni anglash uchun hujjatlarning matniy tanqidiy tahlili ham o’tkazildi. Sababi, o’sha davr hisobotlarida ijobiy raqamlar bo’rttirib ko’rsatilishi, qiyinchiliklar esa xaspo’shlanishi ehtimoli yuqori edi.

Statistik va arxiv ma’lumotlarini boyitish maqsadida og’zaki tarix va xotiralar metodidan (urush yillarida ishlagan shifokor ayollar va hamshiralarning xotiralarini jamlagan asarlar orqali) foydalanildi [12, 105-b.]. Bu yondashuv tadqiqotga insoniylik ruhiyatini olib kirishga

va quruq raqamlarni jonlantirib, xotin-qizlarning ruhiy hamda jismoniy mashaqqatlarini xolis ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga yordam berdi.

Natijalar

Arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, urush boshlanganidan so'ng dastlabki oylardan oq Farg'ona va Andijon viloyatlari tibbiyot tizimida misli ko'rilmagan kadrlar yetishmovchiligi yuzaga kelgan. 1941-yilning oxiriga kelib Andijon viloyatidan frontga 200 dan ortiq yetakchi shifokorlar va 500 dan ziyod o'rta tibbiyot xodimlari jo'natilgan [13, 56-b.]. Bu bo'shliqni to'ldirish va vodiya keltirilgan evakogospitallarni ishchi kuchi bilan ta'minlashning yagona yechimi xotin-qizlarni jalb etish edi.

O'zR MDA ma'lumotlariga ko'ra, 1941-1943-yillar davomida Farg'ona va Andijonda Qizil Xoch jamiyati hamda mudofaa qo'mitalari tashabbusi bilan "sanitarka-drujinniklar" tayyorlovchi 40 dan ortiq qisqa muddatli kurslar faoliyat yuritgan. Natijada faqat Farg'ona viloyatining o'zida qisqa davr ichida 1500 ga yaqin xotin-qizlar (ularning qariyb 60 foizi mahalliy o'zbek qizlari) tibbiy tayyorgarlikdan o'tib, ospitallarga ishga kiritildi [10, 31-b.]. Ospitallardagi palata hamshiralari, jarrohlik o'rganuvchilari, qon quyish markazlari xodimlarining mutlaq ko'pchiligi (90% gacha) ayollardan iborat bo'lib qoldi. Farg'onadagi 3682, 1264-raqamli, Andijondagi qator ixtisoslashgan ospitallarda frontdan olib kelingan og'ir asab, yuz-jag' jarohatlarini davolash ayol shifokorlar va tinimsiz mehnat qilgan yosh hamshiralar yelkasida turdi [14, 88-b.].

Yana bir muhim natija fuqarolik sog'liqni saqlash tizimi bilan bog'liq. Urush yillarida bezgak va tif kabi kasalliklarga qarshi kurash bo'yicha brigadalarning asosiy qismini ayollar tashkil qildi. Qishloqlarda erkak feldsherlarning frontga ketishi natijasida, avvallari e'tibordan chetda qolib kelgan xotin-qizlar tuman tibbiyot punktlariga (FAP) mudir etib tayinlana boshladi. Andijon viloyati davlat arxivi hujjatlariga asoslansak, 1944-yilda viloyat qishloq tumanlaridagi feldsher-akusherlik punktlari xodimlarining 82% ini ayollar tashkil etgan. Holbuki, bu ko'rsatkich 1940-yilda 30% ga ham yetmas edi [11, 45-b.].

Urushdan keyingi (1946–1950) yillarda kutilganidek, barcha ayollar tibbiyotni tashlab o'z ro'zg'orlariga qaytib ketishmadi. Aksincha, sohada o'rnashib qolgan ayollar faoliyatini yanada professional darajaga ko'tarishga intildilar. 1948–1950-yillarda Andijon va Farg'ona tibbiyot uchilishchalarini tamomlaganlarning 85-90 foizi qizlar bo'lib, ular asosan pediatriya, akusherlik va ginekologiya yo'nalishlarida ixtisoslasha boshladilar [7, 41-b.]. Viloyatlarda tashkil etilgan bolalar poliklinikalari tarmog'i to'liq xotin-qizlar nazoratiga o'tdi. Bu yillarda olingan amaliy natijalar shuni tasdiqlaydiki, ayollarning faol aralashuviz O'zbekiston qishloq tibbiyotini tiklash, tug'ruq va bolalar o'limi kabi muammolarni jilovlash imkonsiz bo'lar edi.

Muhokama

Olingan natijalar va arxiv raqamlarini tahlil qilar ekanmiz, 1941-1950-yillarda Andijon va Farg‘ona viloyatlari sog‘liqni saqlash tizimida xotin-qizlarning o‘rni shunchaki “yordamchi” emas, balki “qutqaruvchi” va sohani ushlab turuvchi asosiy ustunga aylanganini tasdiqlash mumkin. Buni bir nechta omillar nuqtai nazaridan muhokama qilish joiz.

Birinchi, kadrlar siyosatidagi gender inqilobi. Farg‘ona vodiysi kabi an’anaviy, patriarxal qarashlar kuchli bo‘lgan hududda mahalliy o‘zbek qizlarining ommaviy ravishda uydan chiqib, gospitalarga – asosan erkak yaradorlar bilan ishlashga kelishi katta ijtimoiy-madaniy evrilish edi. Bunga davlatning targ‘ibot mashinasi ham, shaxsiy vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ulari ham ta’sir ko‘rsatdi [15, 76-b.]. Yosh qizlarning murakkab jarrohlik stollarida assistentlik qilishi yoxud tumanlarda vabo, tif infeksiyasi o‘choqlariga kirib borishi o‘sha davr uchun mislsiz qahramonlik sanaladi. Ammo bu "feminizatsiya" jarayoni tibbiyot kadrlarining daromad darajasi boshqa sohalarga (masalan, og‘ir sanoat) nisbatan pastroq bo‘lib qolishiga olib keldi, chunki sovet davrida ayollar ko‘p joylashgan sohalar moliyalashtirishda ikkinchi darajali qoldiq tamoyili bilan moliyalashtirilar edi [8, 160-b.].

Ikkinchi, ayollarning ikki karra og‘ir yuki. Arxiv yozishmalarini o‘qir ekanmiz, gospitallarda faoliyat yuritayotgan yoki qishloq punktlarida ishlayotgan ayollar nafaqat tibbiy xizmat ko‘rsatgani, balki o‘tin tayyorlash, kasalxonani isitish, yaradorlarning kiyimlarini yuvish va hatto gospital qoshidagi yordamchi xo‘jaliklarda dehqonchilik qilish kabi mashaqqatli jismoniy ishlarni ham bajarganiga guvoh bo‘lamiz. Farg‘onadagi ko‘pgina shifoxonalarda hamshiralar ochlikdan holsizlangan hollarda ham donor bo‘lib o‘z qonlarini berishgan [12, 112-b.]. Bu real qiyinchiliklar davlat qog‘ozlaridagi ko‘tarinki ruhdagi qarorlarga zid o‘laroq, g‘oyat mudhish va fojiali kunlar bo‘lganini ko‘rsatadi.

Uchinchi, urushdan keyingi meros. 1946-1950-yillar davriga e’tibor qaratsak, urush qiyinchiliklarida toblangan tibbiyotchi ayollar armiyasi kelajak avlod tibbiyot kadrlari uchun o‘qituvchi va murabbiylarga aylandi. Andijon va Farg‘onada onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug‘ruqxona tizimlarini tashkil qilish bevosita shu ayollarning tajribasi asosida qurildi. Ularning mehnati natijasida mintaqada aholi sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha ijtimoiy ishonch paydo bo‘ldi –qishloq xotin-qizlari endilikda o‘z muammolari bilan doya kampirlar emas, balki malakali tibbiyotchi ayollarga murojaat qila boshladilar. Shu tariqa, muhokama natijalari o‘zbek ayolining sog‘liqni saqlash tizimidagi dominant o‘rni aynan shu ondan boshlab poydevor qo‘yilgani va bu qonuniyat bugungi kungacha davom etib kelayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa

Urush va urushdan keyingi dastlabki yillarda (1941-1950-yy.) Andijon va Farg‘ona viloyatlari sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan jarayonlarni tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Avvalo, Ikkinchi jahon urushi sababli yuzaga kelgan keskin kadrlar taqchilligi Farg‘ona vodiysi mintaqasida sog‘liqni saqlash tizimiga minglab xotin-qizlarning kirib kelishiga kuchli turtki bo‘ldi. Qisqa muddatli kurslarda tahsil olgan bu ayollar nafaqat evakuatsiya qilingan harbiy gospitallar faoliyatini ta‘minladi, balki viloyatlarning qishloq hududlarida infeksiyon kasalliklar tarqalishining oldini olishda qalqon bo‘lib xizmat qildi.

Ikkinchidan, tibbiyot sohasida yuz bergan ushbu kadrlar evrilishi mintaqa hayotida chuqur sotsial-gender o‘zgarishlarni boshlab berdi. Ilgari uy sharoitida va asosan qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan yuzlab mahalliy xotin-qizlar tibbiyotdek mas‘uliyatli va kasbiy malaka talab etadigan sohaga muvaffaqiyatli moslashdilar. Ularning jismoniy va ruhiy matonati hududda barqaror ijtimoiy va demografik ahvolni saqlab qolish imkonini berdi.

Uchinchidan, urushdan keyingi 1946-1950-yillarda bu jarayon to‘xtab qolmadi, balki professional tibbiy ta‘lim yo‘nalishida tizimlashdi. Urush toblagan ayol hamshiralar va feldsherlar hududda yangi tibbiy muassasalar (poliklinikalar, tug‘ruqxonalar) asosiga aylandi. Bugungi kunda O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida xotin-qizlar salmog‘ining yuqori ekanligi aynan shu 1940-yillarning murakkab va sinovli davrida shakllangan tarixiy poydevorning mantiqiy davomidir. Shu ma‘noda, ushbu davr tibbiyotida xotin-qizlarning xizmatini chinakamiga fidoiylilik va qahramonlik namunasi deb baholash tarixiy adolatga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsutdinov R. O‘zbekiston tarixi: Urush va undan keyingi yillar. – Toshkent: Sharq, 2011. – 56-b.
2. Inoyatov S., Qurbonov A. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1990). – Buxoro: Durdon, 2018. – 114-b.
3. Muqimov U.A. O‘zbekiston sovet shifokorlarining Ulug‘ Vatan urushi yillaridagi jasorati. – Toshkent: Meditsina, 1978. – 89-b.
4. Alimova D. O‘zbekistonda xotin-qizlar masalasi: tarixiy tajriba. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004. – 117-b.
5. Shamsutdinov R. Ikkinchi jahon urushi va front tarixiga oid chizgilar. – Andijon: Hayot, 2020. – 43-b.

6. Maxmudova N. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tarixi. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 1998. – 155-b.
7. Ataxanov A.S. Andijon mintaqasida tibbiy ta‘lim tarmog‘ining shakllanishi va rivojlanishi (1940-1990 yillar). Tarix fan. nom. dis. – Toshkent, 2008. – 28-b.
8. Kamp M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – 142-b.
9. G‘ulomov X. Tarixiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2011. – 64-b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA), 837-fond, 1-ro‘yxat, 452-yig‘ma jild. – 18-b.
11. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA), 135-fond, 2-ro‘yxat, 22-yig‘ma jild. – 45-b.
12. Rahimov M. Ikkinchi jahon urushi va Farg‘ona vodiysi: front orqasidagi qahramonliklar. – Farg‘ona: Farg‘ona nashriyoti, 2015. – 105-b.
13. Qosimov M. Andijonda xotin-qizlar harakati: tarix va bugun. – Andijon: Meros, 2001. – 56-b.
14. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA), 412-fond, 1-ro‘yxat, 77-yig‘ma jild. – 88-b.
15. Ziyodov Sh. Farg‘ona vodiysida urush yillaridagi tibbiy vaziyat / O‘zbekiston tarixi jurnali, 2017, №4. – 76-b.